

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDINTI HUZURIDAGI STATISTIKA
AGENTLIGI SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



Surxondaryo
viloyatida
kichik tadbirkorlik




2023- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2018-2023- yillarning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), *ming birlikda*




Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

2023- yilning 1- iyul holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **21,0** mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **5,0** mingtaga kamaygan yoki **19,2** % ga qisqargan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **9,8** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2023- yilning yanvar-iyunida **1770** ta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **27,2** % ga kam demakdir.

2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



2023- yil 1- iyul holatiga, faoliyat yuritayotganlar soni jami **21 026** tani, shundan yangi tashkil etilganlari **1770** tani tashkil etdi


2023- yilning 1- iyul holatiga ko'ra, hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Termiz shahrida **3 710** tani yoki jamiga nisbatan **17,6 %** ni tashkil etdi.

2019-2023- yillarning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, birlikda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*



2023- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbatan **9,8** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2022- yilga nisbatan **2,4** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining **har 1000 aholiga** nisbati eng yuqori ko'rsatkichi Termiz tumanida **19,3** birlik, Termiz shahrida **18,8** birlik, Boysun tumanida **11,2** birlik, Bandixon tumanida **10,7** birlik va Sherobod tumanida **10,5** birlikka yetdi.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, *birlikda*)*

Termiz	19,3
Termiz sh.	18,8
Boysun	11,2
Bandixon	10,7
Sherobod	10,5
Muzrabot	9,2
Angor	9,1
Uzun	9,0
Qiziriq	8,9
Oltinsoy	8,9
Sho'rchi	8,2
Jarqo'rg'on	8,1
Sariosiyo	8,1
Qumqo'rg'on	8,0
Denov	8,0

* Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda

2022- y.		2023- y.
132	Angor	90
107	Bandixon	50
163	Boysun	55
290	Denov	155
187	Jarqo'rg'on	138
128	Muzrabot	76
113	Oltinsoy	109
107	Qiziriq	129
156	Qumqo'rg'on	79
120	Sariosiyo	95
173	Sherobod	189
133	Sho'rchi	108
107	Termiz	68
395	Termiz sh.	352
121	Uzun	77


2023- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi. % da

Termiz sh.	19,9
Sherobod	10,7
Denov	8,8
Jarqo'rg'on	7,8
Qiziriq	7,3
Oltinsoy	6,2
Sho'rchi	6,1
Sariosiyo	5,4
Angor	5,1
Qumqo'rg'on	4,4
Muzrabot	4,3
Uzun	4,3
Termiz	3,8
Boysun	3,1
Bandixon	2,8

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Termiz shahri - **19,9 %**, Sherobod tumani - **10,7 %**, Denov tumani - **8,8 %**, Qiziriq tumani - **7,3 %**, Jarqo'rg'on tumani - **7,8 %**, Sho'rchi tumani - **6,1 %**, Oltinsoy tumani - **6,2 %** hissalariga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar


2022-2023- yillarning 1- yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar, birlikda



2023- yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida **754** ta, sanoatda **275** ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida **198** ta hamda qurilishda **140** ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019-2023- yillarning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *birlik*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2019-2023- yillarning yanvar-iyunida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, *birlik*



So'ngi yillarda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida, 2019-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida jami **15 173** ta kichik korxonalar va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida - **4 945** ta (yoki **32,6 %**), sanoat sohasida - **3 366** ta (yoki **22,2 %**), xizmatlar sohasida - **2 365** ta (yoki **15,6 %**), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **3 354** ta (yoki **22,1 %**) va qurilish sohasida - **1 143** ta (yoki **7,5 %**) tashkil etilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarida eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan sohalar

Kichik korxonalar va mikrofirmalar so‘nggi 3 yilda eng ko‘p yangidan tashkil etilayotgan soha va yo‘nalishlar


Tarmoq nomi	Korxonalar soni, birlik	Tarmoqdan ulushi, %da
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi		
Donakli va po‘choqli urug‘i bo‘lgan mevalar etishtirish	328	25,1
Paxta etishtirish	187	14,3
Sabzavotlar yetishtirish	145	11,1
Uzum yetishtirish	141	10,8
Donli ekinlar etishtirish	121	9,3
Sanoat		
Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish	251	16,5
Betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish	115	7,6
Beton, qurilish gipsi va sementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish	94	6,2
Boshqa to‘qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish	64	4,2
Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish	61	4,0
Qurilish		
Yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish	215	38,0
Turar joy binolarini qurish	121	21,4
Avtomobil yo‘llari qurilishi	61	10,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan boshqa muhandislik inshootlari qurish	45	7,9
Elektrotexnik va montaj ishlari	19	3,4
Savdo		
Ixtisoslashgan do‘konlarda boshqa oziq-ovqat mahsulotlari chakana savdosi	480	18,3
Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosi	360	13,7
Yog‘och, qurilish materiallari va sanitariya-texnik uskunalar ulgurji savdosi	147	5,6
Ixtisoslashgan do‘konlarda farmatsevtika tovarlari chakana savdosi	140	5,3
Oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan ichimliklar, va tamaki mahsulotlari ixtisoslashmagan ulgurji savdosi	137	5,2
Xizmatlar sohasi		
Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari	212	14,9
Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo‘yicha xizmatlar	165	11,6
Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar	71	5,0
Maktabgacha ta'lim	68	4,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan, xo‘jalik faoliyatiga yordamchi xizmat ko‘rsatishning boshqa turlari	63	4,4

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, so'nggi besh yilda barcha sohada yangi turdagi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil etilmoqda. Jumladan, so'nggi 3 yilda eng ko'p savdo sohasining ixtisoslashmagan do'konlarda chakana savdosi yo'nalishida **480 ta** yangi kichik korxonalar va mikrofirma tashkil etilgan bo'lib, bu esa savdo sohasida oxirgi 3 yilda tashkil etilgan korxonalarining **18,3 %** ini tashkil etmoqda. Bundan tashqari so'nggi yillarda xizmatlar sohasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar hamda kichik tadbirkorlik subyektlariga berilayotgan imkoniyat va preferensiyalar natijasida, xizmatlar sohasining ovqatlanishni tashkil etish, maktabgacha ta'lim va restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishlarida ham ko'plab kichik korxonalar va mikrofirmalar ochilayotganligini ko'rishimiz mumkin.


Shuningdek, sanoat sohasida so'nggi yillarda asosan qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, betondan qurilish uchun buyumlar ishlab chiqarish, beton, qurilish gipsi va sementdan boshqa buyumlar ishlab chiqarish, boshqa to'qilgan va trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish va boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan bo'lsa, qurilish sohasida esa ko'proq yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar turar joylarni qurilishi, yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish va avtomobil yo'llari qurilishi ko'proq tashkil etilmoqda.

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), % da



2018-y. 2019-y. 2020-y. 2021-y. 2022-y. 2023-y.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlar, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **75,0 %** ni tashkil qilib, 2022- yilga nisbatan **0,1** punktga kamaygan. Kamayishining asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo'shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari yo'lovchi aylanmasida **95,2 %** ni, yo'lovchi tashishda **97,7 %** ni, savdoda **96,9 %** ni, qishloq xo'jaligida **95,9 %** ni va qurilishda **91,1 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdodagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

Termiz sh.	283,4
Sherobod	233,0
Denov	188,8
Sho'rchi	164,4
Muzrabot	108,7
Termiz	103,8
Jarqo'rg'on	103,6
Bandixon	102,9
Qumqo'rg'on	86,5
Uzun	84,2
Sariosiyo	81,8
Oltinsoy	79,8
Boysun	66,0
Angor	63,5
Qiziriq	33,8

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1784,2** milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Termiz shahri (**283,4** mlrd. so'm), Sherobod (**233,0** mlrd. so'm), Denov (**188,8** mlrd. so'm), Sho'rchi (**164,4** mlrd. So'm) va Muzrabot (**108,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi. Qiziriq tumanida (**33,8** mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi. % da


Bandixon	100,0
Boysun	96,4
Angor	89,4
Muzrabot	87,2
Oltinsoy	82,4
Sho'rchi	57,4
Termiz	55,8
Termiz sh.	52,0
Denov	48,9
Sherobod	48,8
Uzun	48,2
Sariosiyo	43,2
Qumqo'rg'on	29,0
Jarqo'rg'on	24,1
Qiziriq	22,5

2023- yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **49,8 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Bandixon tumani (**100,0 %**), Boysun tumani (**99,4 %**), Angor tumani (**89,4 %**), Muzrabot tumani (**87,2 %**), Oltinsoy tumani (**82,4 %**), Sho'rchi tumani (**57,4 %**), Termiz (**55,8 %**), Termiz shahri (**52,0 %**), Denov tumani (**48,9 %**) va Sherobod (**48,8 %**) tumanlari tashkil etdi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi



hududlar ■ hajmi ■ ulush


2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3 269,6** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **91,1** % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **107,2** % ni tashkil qildi.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Termiz shahri (**995,6** mlrd. so'm), Denov (**384,0** mlrd. so'm), Boysun (**249,2** mlrd. so'm), Sariosiyo (**238,6** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**218,8** mlrd. so'm), Termiz (**192,2** mlrd. so'm), Angor (**168,7** mlrd. so'm) va Sherobod (**147,7** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3 302,2** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **55,1 %** ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **110,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Termiz shahri (**469,8** mlrd. so'm), Denov (**376,1** mlrd. so'm), Boysun (**306,0** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**301,0** mlrd. so'm), Sherobod (**287,0** mlrd. so'm), Angor (**259,2** mlrd. so'm) va Sariosiyo (**221,2** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi faoliyati


2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligi hajmining o‘zgarish dinamikasi, mlrd. so‘mda




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi **14 238,4** mlrd. so‘mni yoki jami qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmining **95,9** % ini tashkil etdi. O‘shish sur‘ati 2022- yilga nisbatan **102,2** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi Denov (**2618,9** mlrd. so‘m), Sherobod (**1377,3** mlrd. so‘m), Jarqo‘rg‘on (**1327,7** mlrd. so‘m), Muzrabot (**1069,0** mlrd. so‘m), Sho‘rchi (**1015,9** mlrd. so‘m) va Qumqo‘rg‘on (**1000,1** mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo‘jaligidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **8 314,1** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **96,9 %** ini tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan **104,0 %** ni tashkil qildi.

2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'm

Denov	1818,3
Termiz sh.	1478,7
Sho'rchi	872,1
Sherobod	513,0
Jarqo'rg'on	434,9
Uzun	391,1
Angor	379,7
Qiziriq	376,1
Qumqo'rg'on	374,3
Boysun	364,0
Oltinsoy	354,2
Muzrabot	351,7
Sariosiyo	326,4
Termiz	150,9
Bandixon	128,7

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi, % da




2018- y. 2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y.


Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Denov (**1818,3** mlrd. so'm), Termiz shahar (**1478,7** mlrd. so'm), Sho'rchi (**872,1** mlrd. so'm), Sherobod (**513,0** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**434,9** mlrd. so'm) va Uzun (**391,1** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatishi hajmi, mlrd. so'mda




2023- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **4 501,5** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **63,1** % ini tashkil qildi va o'sish sur'ati 2022- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **97,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Termiz shahri (**896,2** mlrd. so'm), Denov (**554,5** mlrd. so'm), Sariosiyo (**284,4** mlrd. so'm), Jarqo'rg'on (**284,4** mlrd. so'm), Sherobod (**280,9** mlrd. so'm), Sho'rchi (**271,9** mlrd. so'm) va Qumqo'rg'on (**269,3** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan turlari




Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **53,0 %** (2 383,7 mlrd. so'm), transport xizmatlarida- **21,4 %** (962,7 mln. so'm), yashash va ovqatlanish xizmatlarida **4,8 %** (215,2 mln. so'm) hamda shaxsiy xizmatlarda – **4,6 %** (207,5 mln. so'm) tashkil etdi.

Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi moliyaviy xizmatlarida **0,1 %** (3,0 mln so'm) kuzatildi.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.




Ulushi, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

Hajmi, mln. AQSH dol.

Ulushi, % da




2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, %da



2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **59 304,6** ming AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **72,7 %** ini tashkil etdi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi



2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Bandixon tumanida - **100,0 %**, Boysun tumanida - **100,0 %**, Oltinsoy tumanida - **100,0 %**, Sariosiyo tumanida - **100,0 %**, Muzrabot tumanida - **100,0 %**, Qiziriq tumanida - **100,0 %**, Sherobod tumanida - **96,2 %**, Angor tumanida - **87,0 %** va eng past ko'rsatkich Uzun tumanida - **32,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2018-2023- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **52 824,1** ming AQSH dollarini yoki jami importning **91,0** % ini tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da


2023- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Qiziriq tumanida - **100,0** %, Boysun tumanida - **100,0** %, Bandixon tumanida - **100,0** %, Qumqo'rg'on tumanida - **100,0** %, Muzrabot tumanida - **100,0** % va Uzun tumanida - **99,6** % ni tashkil etdi.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati




Yuk
tashishda



Yuk
aylanmasida



Yo'lovchi
tashishda



Yo'lovchi
aylanmasida

2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **93,4 %** ni tashkil etdi. 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **112,3 %** ni tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,2 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **106,7 %** ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,7 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,0 %** ni tashkil qildi.

2023- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **98,5 %** ni tashkil etib, 2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati **100,0 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2023- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxonalar va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **1289** ta kichik korxonalar va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **513 (39,8 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **672 (52,1 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **104 (8,1 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **44,3 % (571 ta)**, xizmatlar sohasida - **27,1 % (350 ta)**, sanoatda - **11,5 % (148 ta)**, qurilishda – **9,9 % (127 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **7,2 % (93 ta)** ni tashkil etdi.

2023- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, foizda



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


2023-yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi, birlikda



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Termiz shahri (248 ta), Denov (170 ta), Jarqo'rg'on (99 ta), Sho'rchi (94 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar soni 2018- yilda **436** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **748** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **312** taga oshgan. Shuningdek iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar soni 2018- yilda **776** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **1 298** ta yoki **522** taga oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **49** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib **183** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2018- yilga nisbatan **134** taga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari


Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar soni 2018- yilda **934** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **961** taga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **277** taga oshgan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar soni 2018- yilda **200** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **976** ta yoki **776** taga oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar soni esa 2018- yilda **24** tani tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **105** tani tashkil etib, **81** taga oshgan.


Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **34,6 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **33,6 %** ga yetgan yoki 2018- yilga nisbatan **1,0 %** birlik kamaygan. Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **61,5 %** bo'lgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2023- yilda **58,2 %** yoki **3,3 %** birlikka kamaygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **3,9 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **8,2 %** ga ko'paygan.


Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2018-2023- yillar uchun umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), %



Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxonalar va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **80,6 %** ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilga kelib esa **47,1 %** ni tashkil qilgan yoki 2018- yilga nisbatan **33,5 %** birlik kamaygan. Shuningdek iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalar ulushi 2018- yilda **17,3 %** bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2023- yilda **47,8 %** yoki **30,5 %** birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalar ulushi esa 2018- yilda **2,1 %** ni tashkil etgan bo'lsa, 2023- yilga kelib, bu ko'rsatkich **5,1 %** ga oshgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2023- yilning II choragida oʻtkazilgan kuzatuv natijalariga koʻra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha eng koʻp ulushi xizmatda - **45,2 %** ni, sanoatda - **40,5 %** ni va qurilishda - **38,6 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi savdoda - **55,3 %**, qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida - **54,8 %** ni, sanoatda - **50,7 %** va qurilishda - **49,6 %** ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng koʻp ulushi qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligida - **11,8 %** ni, qurilishda - **11,8 %** ni, sanoatda - **8,8 %** ni va xizmatlar sohasida - **7,1 %** ni va tashkil etdi.

2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2023- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda - **73,2 %** ni, xizmatda - **68,0 %** ni va sanoatda - **66,9 %** ni tashkil etdi.

Shuningdek, **yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli** bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida - **36,6 %** ni, savdoda - **32,9 %** ni va sanoatda - **31,7 %** ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarining eng ko'p ulushi savdoda - **2,8 %** ni, xizmatlar sohasida - **2,6 %** ni va qurilishda - **2,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	45,8	40,2	14,0
Band bo'lganlar soni	31,1	58,9	10,0
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	45,6	44,3	10,1
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	43,1	47,8	9,1
Raqobat muhiti	49,9	41,3	8,8

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	64,6	32,1	3,3
Band bo'lganlar soni	51,3	46,2	2,5
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	62,1	35,4	2,5
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarzi mablag'lari	59,1	38,7	2,2
Raqobat muhiti	60,9	36,9	2,2


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2023- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari, tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi bo'limi

Tel.: +998 (76) 225-65-68